

UDK. 636.615.615.9

EKOTOKSIKANTLARNI HAYVONLAR ORGANIZMIGA TA'SIRI

Shirinboyev Shahboz - SamDVMCHBU izlanuvchisi

Xalilov Laziz – SamDVMCHBU assistenti

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya. Maqolada sanoat ishlab chiqarish jarayonlaridan hosil bo'ladigan ekotoksikantlar tarkibi va ularning zararli ta'siridan mahsuldor hayvonlar organizmida sodir bo'ladigan patologik jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Аннотация. В статье приведены сведения о составе экотоксикантов, образующихся в процессе промышленного производства, и о патологических процессах, возникающих в организме продуктивных животных вследствие их вредного воздействия.

Kalit so'zlar: sanoat chiqindilari, pestitsid, dispepsiya, bronxopnevmoniya, flyuoroz, o'pka raki, neyrotoksik, gematotoksik, gepatotoksik, nefratoksik.

Ключевые слова: промышленные отходы, пестицид, диспепсия, бронхопневмония, флюороз, рак легких, нейротоксичный, гематотоксичный, гепатотоксичный, нефротоксичный.

Kirish. Bugungi kunda Sanoatda ishlab chiqarishni rivojlantirish, maqsadida kimyo texnologik jarayonlarni xalq xo'jaligining turli sohalariga tadbqiqilinishi oqibatida, atrof-muhitni haqiqiy ifloslanishiga sharoit yaratilmoqda. Texnogen omillar ham insonlar tomonidan tabiatga ko'rsatgan ta'siri oqibatida yuzaga kelib, atrof muhit ekologiyasiga, hayvonot olamiga hamda iste'mol mahsulotlar sifatiga o'zining zararli ta'sirlarini ko'rsatmoqda.

Sanoat chiqindilari – bu ishlab chiqarish jarayonida yaroqsiz bo'lgan har qanday vositalarni o'z ichiga olgan, sanoat faoliyati natijasida hosil bo'ladigan ya'ni fabrikalar, sanoat korxonalari va kon chiqindilaridir. Xavfli chiqindilar zaharli, yonuvchan, reaktiv yoki radioaktiv bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish chiqindilari havoni, tuproqni yoki yaqin atrofdagi suv manbalarini ifloslantirishi oqibatida dengiz havzasiga tushib qolishi mumkin.

Ilmiy izlanishlar. Tadqiqotlar sanoat chiqindilari ta'sirida bo'lgan Navoy viloyatidagi Karmana va Qiziltepa tumanlari fermer xo'jaliklariga qarashli mavjud chorva mollaridan foydalanilgan holda o'rganildi. Sanoat korxonalaridan ajralib chiqadigan uglerod oksidi, azot oksidi, azot dioksidi, gaz harorati, differensial bosim, texnologik parametrlar va tashlanmalar hisobini monitoring qilishda, multigaz

“OPTIMA-7” gaz analizatoridan va ichimlik, tabiiy va oqova suvlar hamda tuproq tarkibini aniqlash “Ekspert-003” fotometrik maxsus jihozlari yordamida aniqlandi.

Ekotoksikantlarni zaxarlilik darajasini aniqlashda L.I.Medved va boshqalar (1986) tasnifi asosida, hayvonlarning immun holatini baholashda G.F.Karomoslov va boshqalar, hayvonlar reproduktiv faoliyatiga bo'ladigan ta'sirlarni esa I.V.Sanotskiy va boshqalarning va shu kabi qabul qilingan klinik diagnostika usullaridan foydalangan holda aniqlandi.

Kimyoviy toksikantlarning asosiy qismi organizmga nafas yo'llari, oshqozon ichak tizimi, teri hamda shilliq pardalar orqali kiradi. Yuqori miqdorlarida ushbu kimyoviy chiqindilar va zararli changlar, chorva mollari va parrandalar organizmiga o'zining konserogen, teratogen, embriotoksik hamda allergik kabi salbiy ta'sirlarni namoyon qilishi mumkin.

Natijada organizmda turli xil patologik jarayonlarni sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Xususan:

1. Nerv tizimi kasalliklari (nevroz)
2. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (dispepsiya, atoniya, timpaniya, gastroenterit)
3. Nafas tizimi organlari kasalliklari (o'pka raki, bronxit, pnevmoniya, bronxopnevmoniya, plevrit, laringit)
4. Modda almashinuvida buzilishlar (Flyuoroz, gipovitaminoz A, jigar va buyrak kasalliklari, allergiya, osteomalyasiya, dermatit, onkologik kasalliklar, mastit, kon'yuktivit)
5. Jinsiy a'zolar kasalliklari (bepushtlik, homila rivojlanish patologiyasi, urug'don dabbasi)
6. Zaharlanishlar (pestitsidlar, kimyoviy o'g'itlar)
7. Parazitar kasalliklar (koksidioz, gemosporidioz, fassiolyoz)
8. Irsiy kasalliklar (majruhlik)

Kimyoviy toksikantlarning ta'siri natijasida hayvonlar immun tizimi va reproduktiv faoliyatida ham turli xildagi patologik jarayonlar sodir bo'lishiga olib keladi. Xususan, ularni immun tizimiga immunodepressiv ta'siridan, organizmda umumiy rezistenlik pasayib, joylardagi hayvonlarni yuqumli kasalliklariga nisbatan beriluvchanligini oshishiga olib keladi.

Hayvonlar reproduktiv faoliyatida esa nasldorlikni pasayishi bilan tug'ilgan avlodning keyingi rivojlanish davrida o'lim holatlarini sodir bo'lishi, urg'ochi hayvonlar orasida qisir qolish va bepushtlik, erkak hayvonlarda esa urug'don dabbasi kabi kasalliklar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kimyoviy toksikantlarni hayvonlar organizmida to'planadigan asosiy organlari: jigar, taloq, yurak mushaklari, bo'yraqlar, o'pka, yog to'qimalari, muskul to'qimalari,

t
i

Ayniqsa zararli sanoat chiqindilari ta'siridan hayvonlar organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil, karotin, fosfor, zahiradigi ishqor va kalsiy moddalarning me'yoriga nisbatan pasayishi, tabiiy ravishda hayvonlar mahsuldorligiga va ulardan olinadigan mahsulotlar sifatiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosalar

1. Zararli chiqindilar chorva mollari orasida flyuoroz, osteomalyasiya, irsiy kasalliklar, nerv tizimi, nafas organlar tizimi kasalliklari, ovqat hazm qilish, modda almashinuvida buzilishlar, jinsiy-ko'payish organlari kasalliklariga hamda zaharlanishlarga olib keladi.

2. Zararli kimyoviy toksikantlarni immun tizimga, immunodepressiv ta'siridan, organizmda umumiy rezistenlikni pasayishi natijasida, hayvonlarni yuqumli kasalliklarga nisbatan beriluvchanligini oshiradi.

3. Hayvonlar reproduktiv faoliyatida nasldorlikni pasayishi bilan urg'ochi hayvonlar orasida qisir qolish va bepustlik, erkak hayvonlarda esa urug'don dabbasi kabi kasalliklarni sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

4. Sanoat chiqindi va gazlarini qayta ishlaydigan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tozalash tizimini yaratish, atrof -muhit ekalogiyasi va unda yashovchilar organizmiga nisbatan, zararli ta'sirlarni bartaraf etilishiga zamin yaratiladi.

5. Qishloq xo'jalik va chorvachilik sohalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini doimiy ravishda, veterinariya sanitariya jihatidan nazorat tahlillarini o'tkazib borish, aholi o'rtasida uchraydigan turli kasalliklarni oldi olinishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гильдиева М.С. Мутагенная активность экотоксикантов, наследственный и спорадический канцерогенез и его коррекция. Ташкент, 2010.
2. Искандарова Ш.Т. Районирование территорий Республики Узбекистан. Мед. журнал Узбекистана. Ташкент 2003. №6 – С 24-28.
3. Онущенко Г.Г. Некоторые аспекты охраны здоровья и окружающей среды в разработке проекта экологической доктрины России. Здравоохранение Российской Федерации. М-2002. N2-С3-8.
4. Xaitov V.R., Salimov Yu. va b. Kimyoviy vositalar ta'siridan hayvonlar organizmida yuzaga keladigan immun etishmovchiliklarni oldini olish va davolash buyicha tavsiyanoma. Samarqand 2018.
5. Tursunov.X.T. "Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish". T. Universitet 1997 y.
6. Xaitov V.R., Salimov Yu. va b. Pestitsidlar va boshqa kimyoviy toksikantlar ta'siridan hayvonlar ko'payish organlarida sodir bo'layotgan patologiyalar va ularni oldini olish choralari bo'yicha tavsiyanoma.Samarqand 2019.

7. Yuldasheva.S.Sh, F.M. Jumayeva “Antropogen omillarning atrof- muhitga ta’siri”. Respublika ilmiy amaliy konfrensiya. Tosh DAU, 2000 y.
8. Юнусов.Х.Б., Поликарпова Л.В., Дроганова Т.С. Влияние загрязнения водной среды на изменения ферментативной активности пресноводного моллюска живородка речная // АгроЭкоИнфо, №4. 2016.